



XORAZM VOHASI ANTIK DAVRINING ARXEOLOGIK JIHATDAN O'RGANILISHI

Kadirova Gulhayo,

*Urganch davlat universiteti, Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti, Arxeologiya
yo 'nalishi magistranti,*

gulhayokadirova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Xorazm vohasining antik davr mil.avv IV-milodiy IV asrlar tarixiga bag'ishlangan bo'lib, voha antik davrini 1990-yillargacha va mustaqillik davrida o'rgangan olimlar faoliyati, ular yozgan asarlar, shuningdek, Xorazm vohasining mazkur davrdagi shaharsozlik va me'morchilik, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar haqida ham ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Xorazm arxeologik ekspeditsiyalari, S.P.Tolstov, Jonbosqal'a, Ko'zaliqir, Oqshaxonqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Qo'rg'oshinqal'a, Kichik qirqizqal'a, Bozorqal'a, Qizil qal'a.

AN ARCHAEOLOGICAL STUDY OF THE ANTIQUE PERIOD OF THE KHOREZM OASIS

Kadirova Gulhayo,

*Urganch state university, Socio-economic sciences faculty, Department of
archeology Master`s degree student,*

gulhayokadirova@gmail.com

Annotation: This article is dedicated to the history of the Khorezm oasis in antiquity, from the 4th century BC to the 4th century AD. It also provides information on the activities of scholars who studied the antiquity of the oasis until



the 1990s and during the period of independence, the works they wrote, as well as the urban planning and architecture of the Khorezm oasis during this period, and socio-economic relations.

Key words: Khorezm archaeological expeditions, S.P. Tolstov, Jonboskala, Kozaliky, Okshakhankala, Koykirilgankala, Korgoshinkala, Kichik Kirgizkala, Bazarkala, Kizilkala.

АРХЕОЛОГИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ДРЕВНЕГО ПЕРИОДА ХОРАЗМСКОГО ОАЗИСА

Кадирова Гулхайо

Ургенчский государственный университет, Факультет социально-
экономических наук, Направление археология Магистрант,

gulhayokadirova@gmail.com

Аннотация: Данная статья посвящена истории Хорезмского оазиса в древний период IV-IV веков нашей эры, деятельности ученых, изучавших древность оазиса до 1990-х годов и в период независимости, написанным ими трудам, а также сведениям о градостроительстве и архитектуре Хорезмского оазиса в этот период, а также социально-экономических отношениях.

Ключевые слова: Археологические экспедиции Хорезма, С.П. Толстова, Джонбоскала, Козаликир, Акшаханкала, Койкирилганкала, Коргошинкала, Кичик кыркизкала, Базаркала, Кизил кала.

Xorazm yodgorliklarini arxeologik jihatdan o'rganish XX asrning 30-yillari o'rtalaridan boshlanadi va bu ish hozirgacha davom etmoqda. Tadqiqotda Xorazm vohasining qadimgi davri qal'alarining arxeologik jihatdan o'rganilishi tarixi to'rt



bosqichga bo'lish mumkin: urish davrigacha (1936-1940) olib borilgan tadqiqotlar; urishdan keyingi davrda (1945-1958) olib borilgan tadqiqotlar; 1959-1990-yillarda olib borilgan tadqiqotlar va mustaqillik yillarida olib borilayotgan tadqiqotlar. Xorazm yodgorliklarini tadqiq qilishning birinchi va keyingi bosqichlari akademik Y.G'.G'ulomov, S.P.Tolstov va yana ko'plab arxeologlarning nomi, hamda Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi faoliyati bilan bog'liq. Xorazm vohasidagi tarixiy obidalarni har tomonlama chuqur ilmiy asosda o'rganish 1936 yilda Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasining tashkil etilishi munosabati jonlanib ketdi. 1936-1937-yillari Xorazm vohasida birinchi o'zbek arxeologlari Yahyo G'ulomov va T.Mirg'iyosovlarning ekspeditsiyasi Mang'it qishlog'i yaqinida Qubaton tepaligidan milodiy I ming yilligi o'rtalariga mansub bo'lgan zardushtiy qabristonini topib, birinchi marta qadimiy islomga qadar Xorazm yodgorligiga duch keladilar, Geolog Arxangelskiy Xorazmning qadimgi sug'oriladigan hududida Jonbosqa'la, Tuproqqal'a, Qizilqal'a, Bozorqqal'a, Guldursin qal'alari to'g'risida ma'lumot berib, ularni xaritada joylashtirgan, lekin arxeologik tadqiqotlar olib borilmagan. 1937- yildan boshlab Xorazm vohasida professor S.P.Tolstov boshchiligida Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi xodimlari Guldursin qal'ada dastlabki qazish ishlarini olib bordi[4]. Shu ekspeditsiyaning ilmiy xodimi A.Terenojkin 1937-yili Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy va To'rtkul tumanlarida arxeologik tekshiruv ishlarini olib bordi. Uning fikricha, Katqal'asining qadimgi bo'lagi bo'lgan Pilqal'a o'ziga xos qurilishga ega bo'lib, milodiy III-IV asrlarda vujudga kelgan[5]. Ekspeditsiya 1940-yilda o'zining asosiy ish hududida – Amudaryoning o'ng sohilidagi qadimgi sug'orma erlarida qazish va qidirish ishlarini olib bordi. 1938- yilda Tuproqqal'a shahristoni tekshirildi, u erda so'nggi antik Xorazm qal'asi ilk bora aniqlandi.[3] Shu yili ekspeditsiyaning qidiruv bo'limi tomonidan Tuproq, Pil qal'a qo'rg'onlarida arxeologik kuzatuv ishlari olib borildi, sopol idish qoldiqlari asosida taxminiy sanalari belgilandi. Antik yodgorliklardan Qo'yqirilganqal'a, Qo'rg'oshinqal'a, Bozorqal'a,



Jonbosqal'a, Qizilqal'a, Tuproqqal'a, Katta va Kichik Qirqqiz, Anqaqal'a, Qo'ziqirilganqal'a.

S.P.Tolstov miloddan avvalgi VIII-VII asrlar va antik davrda Xorazmdagi yirik suvg'orish kanallarning mavjudligini, qudratli markaziy davlat siyosati bilan bog'lab, shu hududda davlat tashkiloti bo'lmaganda bunday yirik va uzun kanallarni qazib va ularni saqlab bo'lmasdi deb to'g'ri xulosaga kelganligini qayd qilishimiz lozim.

Urushgacha bo'lgan davrda olib borilgan ishlar yakuni S.P. Tolstovning

—Qadimgi Xorazm monografiyasida berildi (M.,1948). Hozirgi mezonlarga ko'ra juda kam bo'lgan arxeologik material asosida Xorazm tarixi eng qadimgi zamonlardan o'rta asrlargacha davrlashtirib berildi. Antik Xorazm yodgorliklari tarixiga ayni shu kitobda birinchi darajali ahamiyat qaratildi va mudofaa inshootlarining tarixiy sharhi hamda tasnifi keltirildi. Antik Xorazm yodgorliklarini o'rganish to'rt davrga bo'linadi:[2]

1) uy-joy devorlari bo'lgan shahriston madaniyati (mil.avv.VI-IV asrlar).

2)Qanxa madaniyati (mil.avv.IV asr -mil.I asr).

3) kushonlar madaniyati (mil.II-III asrlar).

4) kushon-afrig' o'tish madaniyati (mil.III-V asrlar).

Yuqorida keltirilgan yodgorliklarni arxeologik o'rganish bosqichlari yildan-yilga ko'lamini kengayib boradi. Olimlarimiz tomonidan antik davrning o'zi ham alohida davrlashtirilishi, bu albatta o'rganishda bir qancha qulayliklarni yaratdi. Shu o'rinda bu hududda tadqiqot ishlari olib borib Xorazm tarixining yoritilishiga o'z hissasini qo'shgan olimlar va ularning xizmatlari haqida ham to'xtaladigan bo'lsak. A.I.Terenojkin Quyi Amudaryo havzasida arxeologik qidiruv ishlarini olib



borib, qadimgi davrga mansub Jonbosqal'a, Tuproqqal'a, Qo'yqirilganqal'a yodgorliklari to'g'risida ma'lumotlar beradi'.

S.P. Tolstov o'zining tadqiqotlari natijasini bir qator ilmiy adabiyotlarda nashr qilish bilan Xorazm tarixini yoritishda alohida o'rin egalladi.

Y.G'ulomov tadqiqotlari qadimgi Xorazmda sug'orilish madaniyati, Xorazm qishloq va shaharlarini, etnik jarayonlar, davlatchilik masalalari arxeologik ashyolar va yozma manbalardagi ma'lumotlar asosida keng ko'lamli tarzda yoritgan. Xorazmning sug'orilish tarixi bilan bog'liq keyingi tadqiqotlar

B.V. Andrianov ishlarida chuqur o'z aksini topdi. Yu.A. Rapoport Xorazm ekspeditsiyasi o'z faoliyatini to'xtatgach, e'lon qilinmagan materiallar asosida quyi Amudaryo havzasida ilk davlatchilik va urbanistik jarayonlarga oid qator ishlarni e'lon qildi. Amudaryoning o'ng sohillari yodgorliklaridan biri Tuproqqal'ada E.E. Nerazik ham tadqiqot ishlarini olib borib, milodiy III-asrga oid yangi ashyolarni topib o'rgandi. B.I. Vaynberg qadimgi Xorazm tangalari haqida asar yaratdi. Ushbu monografiyada Xorazmning mil. avv. II asrdan milodiy IX asrlargacha bo'lgan ijtimoiy-siyosiy tarixi numizmatik materiallar asosida yangicha talqin qilindi[1].

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni takidlash joizki, ilk sivilizatsiya o'choqlaridan biri bo'lgan Xorazm vohasi turli tarixiy davrlarga oid moddiy madaniy yodgorliklarga boyligi bilan ajralib turadi. Xalqmizning uzoq o'tmishidan, tarixidan ma'lumotlar beruvchi (jumladan antik davri) ko'plab yodgorliklarni o'rganish XIX asrning so'nggi choragidan boshlandi. Sho'rolar davrida Xorazm vohasida ko'plab arxeologik tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsada, lekin arxeologik tadqiqotlar va moddiy madaniy yodgorliklarni ilmiy asosda chuqur tadqiq va tahlil qilish mustaqillik davriga to'g'ri keladi.



Keng ko'lamda olib borilgan arxeologok, ilmiy tadqiqot ishlari, qadimgi madaniyat markazlaridan bir hisoblangan Xorazm vohasi hududidagi antik davridagi ko'plab madaniy yodgorliklarni topib tekshirilishiga sabab bo'ldi.

Yuqoridagi arxeologik ma'lumotlarga tayangan holda, Xorazm vohasi tarixi naqadar uzoq o'tmishga borib taqalishiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

- [1]. Сабиров К.С. Оборонительные сооружения древних поселений и городов Средней Азии (У1-тмс. до н. э.-ГУ в н. э.). //АКД. М., «Наука» 1979 г
- [2]. Толстов, 1939-Толстов С.П. Древнехорезмийские памятники в Каракалпакии (Предварительные итоги археологических работ ИИМК АН СССР и ККАССР в 1938 г.). //ВДИ. № 3
- [3]. Толстов С.П. Хорезмийская экспедиция 1939 г. //КСИИМК. VI. М. 1940 г
- [4]. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. М., Изд-во МГУ 1948 г
- [5]. Толстов с.п. Кой-крылган-кала памятник культуры древнего Хорезма IVв до н.э.-IVвн.э. М., 1967 г.
- [6]. Толстов С.П., Итина М.А., Виноградов А.В. Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция. //АО 1966 г. М., «Наука» 1967 г.